

**TRANSPORT VOSITALARIDAN FOYDALANISH
QOIDALARIGA RIOYA QILISHNI TARTIBGA SOLUVCHI
QOIDALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Azlarov Azizxuja Azimxuja o'g'li

Toshkent Davlat Transport universiteti "Iqtisodiyot" fakulteti
"Xalqaro ommaviy huquq" kafedrası "Yurisprudensiya" yo'nalishi talabasi
Ilmiy rahbar:

Egamberdiyeva Nargiza Xalimbayevna

Xalqaro ommaviy huquq kafedrası yuridik fanlar nomzodi PhD, dotsent

Annotatsiya: transport vositalaridan foydalanish qoidalariga rioya qilishni tartibga soluvchi qoidalarining o'ziga xos xususiyatlari tahlil etiladi. Yakunda, muallif tomonidan mavzu yuzasidan tegishli taklif va xulosalar beriladi.

Kalit so'zlar: transport vositalari, normativ-hujjatlar, tartibga soluvchi normalar, javobgarlik.

**ОСОБЕННОСТИ ПРАВИЛ, РЕГУЛИРУЮЩИХ
СОБЛЮДЕНИЕ ПРАВИЛ ПОЛЬЗОВАНИЯ ТРАНСПОРТНЫМИ
СРЕДСТВАМИ**

Азларов Азизхужа Азимхужа угли

Ташкентский государственный транспортный университет, экономический факультет

Студент кафедры международного публичного права, специальность
«Юриспруденция»

Эгамбердиева Наргиза Халимбаевна

Кандидат юридических наук, доцент кафедры международного публичного права

Аннотация: анализируются особенности норм, регламентирующих соблюдение правил эксплуатации транспортных средств. Наконец, автор дает соответствующие предложения и выводы по теме.

Ключевые слова: транспортные средства, нормативные документы, нормативные акты, ответственность.

**SPECIFIC FEATURES OF THE RULES GOVERNING THE
COMPLIANCE OF THE RULES FOR THE USE OF TRANSPORT
VEHICLES**

Azlarov Azizkhuja Azimkhuja ugli

Tashkent State Transport University, Faculty of Economics

Student of "Jurisprudence" direction of the Department of "Public International Law"

Egamberdiyeva Nargiza Khalimbayevna

Candidate of Legal Sciences, Associate Professor, Department of Public International Law

Abstract: *the specific features of the rules governing the compliance with the rules for the use of transport vehicles are analyzed. In conclusion, the author gives relevant proposals and conclusions on the topic.*

Keywords: *vehicles, regulatory documents, regulatory norms, responsibility.*

KIRISH

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda hech birimiz hayotimizni transport vositalarisiz tasavvur qila olmaymiz, uydan ko'chaga otlandikki barchamiz harakat ishtirokchisiga aylanamiz. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra har yil dunyo bo'ylab yo'l-transport hodisalari natijasida 1 milliondan ziyod fuqarolar halok bo'lmoqda. Tashkilotning 2024-yil bo'yicha hisobotlarida keltirilishicha, bugungi kunda avtovariyalar dunyodagi 30 yoshgacha bo'lgan shaxslar o'rtasida eng asosiy ko'p salmog'ini ko'rsatmoqda. Ta'kidlash joizki, keyingi yillarda yurtimizda avtomobil sanoatining rivojlanishi shuningdek transport vositalarining importiga joriy etilayotgan imtiyozlar ketidan 2024-yil davomida avtomobil transport soni respublikamizda 600 mingtaga ko'paydi. Bundan tashqari, barchamizning xabarimiz bor o'tgan yili mamlakatimiz aholisi qariyb 1 million nafarga ko'paydi. Mazkur omillar yo'llarda harakat qatnashchilari soni oshishiga ta'sir ko'rsatayotgan bo'lsa-da lekin respublikadagi umumiy yo'l-transport hodisalari sonining kamayish dinamikasi bugungi kunda saqlanib qolmoqda. Shu bilan birga mustaqil davlatlar ham do'stligiga a'zo davlatlar

o'rtasida har 100 ming aholiga nisbatan qayd etilgan avtoavariyalar reytingi e'lon qilindi. Qayd etilishicha 2024-yil yakuniga ko'ra respublikamiz mustaqil davlatlar hamdo'stligi respublikalari orasida Ozarbayjon respublikasidan keyin ikkinchi o'rinda qayd etildi. Bu so'nggi bor 2019-yilda qayd etilganda beshinchi o'rinda bo'lgan endi.¹

Barchamizga ma'lum yo'l harakati xavfsizligi xizmati bugungi kunda yo'l transport hodisalarini oldini olish ayniqsa bolalar bilan bog'liq bo'lgan yo'l transport hodisalarini oldini olishga juda qattiq kirishilgan. Xususan Fransiya tajribasi Turkiya tajribasi o'rganilgan holda maktablar oldida qavariq piyodalar o'sish joylarini joriy etish masalasi, qarorlarga yo'l harakati qoidalariga o'zgartirish kiritilgan holda tajriba bugungi kunda qo'llanayapti.

Transport sohasi global iqtisodiyotning muhim tayanchi bo'lib xizmat qiladi, tovarlar va odamlarning uzoq masofalar bo'ylab harakatlanishini osonlashtiradi. Biroq, uning tez o'sishi ko'plab muammolarni, jumladan, xavfsizlik masalasi, atrof-muhit muammolarini keltirib chiqardi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun transport vositalaridan foydalanishni tartibga soluvchi aniq qoidalar mavjud bo'lib, ushbu qoidalarga rioya qilish nafaqat yo'llarda xavfsizlikni ta'minlash, balki atrof-muhitni muhofaza qilish va samarali transport tizimlarini rivojlantirish uchun ham muhimdir.

ASOSIY QISM

Transport vositalaridan foydalanish xavfsizlik, samaradorlik va ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan kompleks qoidalar bilan tartibga solinadi. Ushbu qoidalar transport vositalarini ishlatish, saqlash va nazorat qilishni tartibga solish uchun zarurdir. Qoidalarga rioya qilish nafaqat jamiyatning farovonligini

¹ Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati boshlig'i polkovnik Ibragimov Sherzod Shokirovichning matbuot anjumanida so'zlagan nutqidan foydalanilgan.

ta'minlaydi, balki transport tizimlarining umumiy samaradorligini ham oshiradi.² Aytaylik, transport vositalaridan foydalanishda yong'in xavfsizligi qoidalarini buzish. Bu modda huquqbuzarliklarning ko'pgina turlari (guruhlari) va ularning muayyan ko'rinishlarini qamrab oladi. Huquqbuzarliklarning bu turlari (guruhlari), birinchidan, transportning turi bilan, ikkinchidan, bu huquqbuzarliklarga yo'l qo'yiladigan ob'ektlar (poezd, samolyot, vokzal, port, ombor va hokazolar)ga bog'liq qoidalar bilan oldindan belgilab chiqilgan. Muayyan huquqbuzarliklar turli harakatlarda, masalan, vagonlarda, samolyotlarda, kayutalarda kerosin, benzin va boshqa oson alanga oladigan va yonilg'i moddalar tashishda; yuqorida sanab o'tilgan transport vositalaridan ularning korpusiga tok o'tayotgan holda foydalanishga ruxsat etishda; samolyotni baklari to'ldirilgan holda angarga kiritishda; dvigatel qurilmalari ishlab turgan transport vositalarining yonilg'i-moylash materiallari, neft quyish kemalari va hokazolar yaqinida turishda ifodalanadi. Yong'in xavfsizligi qoidalarini buzishning obyektiv tomoni faqat faol harakatlarda emas, shu bilan birga, harakatsizlikda ham ifodalanishi mumkin. Bunday harakatsizlik transport ob'ektlaridagi yong'in xavfsizligining muayyan qoidalarida nazarda tutilgan. Ularga, masalan, chekish joylarining aniqlanmaganligi, atrofi o'rab qo'yilmaganligi va hokazolar kiritilishi mumkin. Modda bo'yicha javobgarlik biron-bir mulkiy zarar yetkazilishi bilan bog'lanmaydi. O'rtacha og'irlikdagi yoki og'ir tan jarohati yetkazilgan takdirda bu huquqbuzarliklar JKning 259-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi mumkin. Subyektiv tomondan ushbu moddada ko'rsatib o'tilgan yong'in xavfsizligi qoidalarining buzilishi ham qasddan, ham ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan

² Такмакова, Ю. В. (2020). Некоторые проблемы использования средств видеофиксации нарушений правил дорожного движения. Вестник Восточно-Сибирского института МВД России, (2 (93)), 218-226.

bo‘lishi mumkin. Huquqbuzarlik sub’ekti ham fuqaro, ham mansabdor shaxs bo‘lishi mumkin.

Transport vositalarini tartibga soluvchi qoidalarining asosiy xususiyatlaridan biri xavfsizlikdir. Qoidalar yo‘ldan foydalanish bilan bog‘liq xavflarni minimallashtirish, tezlikni cheklash, transport vositalariga texnik xizmat ko‘rsatish talablari va haydovchilarning xatti-harakatlari kabi muammolarni hal qilish uchun o‘rnatiladi. Xavfsizlik qoidalari ko‘pincha transport vositalarini belgilangan standartlarga muvofiqligini ta‘minlash uchun ularni muntazam tekshirishni talab qiladi. Bugungi davr talabidan kelib chiqqan holda avtomobil yo‘llarida vatandoshlarimiz hayoti va salomatligini asrash maqsadida joriy yilning 20 fevral kuni O‘zbekiston Respublikasining “Jinoyat, Jinoyat protsessual kodekslari hamda O‘zbekiston Respublikasi ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga qo‘shimcha va o‘zgartirish kiritish haqida”gi 1033-sonli Qonun qabul qilindi. Qonun qabul qilishda, ishlab chiqishda Ozarbayjon, Rossiya, Belarusiya, Xitoy Turkiya, Qozog‘iston kabi 50 dan ortiq davlatlarning tajribalari ilmiy yondashuv asosida o‘rganildi. Davlat yo‘l harakati xavfsizlik xizmati boshlig‘i o‘rinbosari polkovnik Bozorov Erali Xabibullayevichning so‘zlariga ko‘ra, respublikamizda o‘tkazilgan “Xavfsiz va sog‘lom yurt” tadbiri doirasida davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati oldiga yo‘l-transport hodisalarning barvaqt oldini olish eng dolzarb masala etib qo‘yilgan. Tadbir davomida transport vositalari bilan bog‘liq jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha 113 mingdan ortiq targ‘ibot tashviqot ishlari olib borilgan 40 mingdan ortiq profilaktik suhbatlar o‘tkazilgan 126 mingdan ortiq bukletlar tayyorlanib haydovchilarga tarqatilgan. Tadbir davomida 590 mingdan ortiq yo‘l harakati qoidabuzarliklari aniqlangan 67 mingdan ortiq transport vositalari jarima maydonlariga joylashtirilgan. Shuningdek tadbir

davomida 3 mingdan ortiq haydovchi transport vositalarini most holda boshqarganlik, 1900 ta haydovchi xodimlarning qonuniy talablariga boysunmaslik, 700 dan ortiq haydovchi transport vositalari noqonuniy jihozlar ya'ni sirena, migalka kabi jihozlarni o'rnatganlik, 48 mingdan ortiq shaxs transport vositalarini tegishli hujjatlarsiz boshqarganlik holatlari aniqlanib tegishli ma'muriy jazo choralari qo'llanilgan.³

Qoidalarining yana bir muhim xususiyati bu ijro etuvchi tizim ekanligi hisoblanadi. Vakolatli idoralar talablarga rioya qilmaslik uchun qattiq jazo choralarini belgilaydi, ular jarimadan tortib litsenziyani bekor qilishgacha bo'lishi mumkin. Ushbu chora-tadbirlar qonunbuzarliklarning oldini olishga va belgilangan qoidalariga rioya qilishga yordam beradi. Amalga oshirish samaradorligi ko'p jihatdan nazorat qiluvchi organlarga ajratilgan resurslarga va ularning rioya etilishini ta'minlash majburiyatlariga bog'liq.⁴ Ayniqsa yo'l-transport hodisalari oqibatida yuzlab insonlar jumladan yosh bolalarning halok bo'layotganligi bugun butun jamiyatimiz uchun eng og'riqli nuqtalaridan bir bo'lib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatdan olingan ma'lumotlarga ko'ra 2024 yilda 9364 ta yo'l transportni hodisalari sodir etilishi oqibatida 2203 nafar inson halok bo'lgan 8901 nafar inson tan jarohati olgan.⁵ Ushbu yo'l transport hodisalarining sodir bo'lishiga asosan fuqarolar tomonidan qonunchilikda belgilangan javobgarlikni mensimaslik bo'lsa, ikkinchidan amaldagi yo'l harakati qoidalarini bilmasligi sabab bo'lmoqda. Yo'l transport hodisalarini oldini olish bilan birga fuqarolarimizning hayoti va sog'ligini asrab qolish esa har birimizning

³ Xafsiz va sog'lom yurt tadbiri doirasida Davlat yo'l harakati xavfsizlik xizmati boshlig'i o'rinbosari polkovnik Bozorov Erali Xabibullayevichning so'zlagan nutqiga asosan yozilgan.

⁴ Ковалева, В. А. "Административные правонарушения на морском и внутреннем водном транспорте: понятие и особенности квалификации." Вестник магистратуры 7-1 (58) (2016): 143-147.

⁵ <https://parliament.gov.uz/news/avtomobil-transporti-va-avtomobil-yollari-bilan-bogliq-qonunchilikka-kiritilgan-ozgartirishlar#!>.

burchimiz va vazifamizdir. O'tkazilgan o'rganishlar tahlili yo'l harakati qoidabuzarliklar uchun amaldagi qonun hujjatlarida tasir ko'rsatuvchi omillar mavjud emasligini va bu bilan jazo muqarrarligini ta'minlamaganligi yo'l-transportni hodisalari ko'payishining asosiy sabablaridan biri bo'lmoqda.

Muhokama etilgan qonunda esa yuqoridagi kabi salbiy oqibatlarining oldini olishga xizmat qiluvchi yangi normalar mavjud. Xususan qonun bilan Jinoyat, Jinoyat prosessual hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarga yo'l harakati xavfsizligiga oid huquqbuzarliklarni sodir etganligi uchun javobgarlik choralari belgilandi. Jumladan Jinoyat kodeksiga tegishli o'zgartirishlar kiritish orqali transport vositasini takroran mast holda boshqarganligi uchun jinoiy javobgarlik ya'ni uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilib ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilandi. Qayd etish lozimki mast holda transport vositalarini boshqarish bilan bog'liq e'tibor bering 2021-yilda 40 mingta, 2022 yilda 47 mingta va 2023 yilda 41mingta va 2024 yilda 31mingta huquqbuzarlik aniqlangan eng achinarlisi faqatgina o'tgan 2024-yilda qariyb 8 ming nafar haydovchi mast holda transport vositasini boshqarganligi uchun ma'muriy javobgarlikka tortilgandan so'ng takroran transport vositasini mast holda boshqarganligini aniqlangan. Mast holda transport vositasini boshqarish oqibatida 2020-2024 yillarda qariyb 6 mingtaga yaqin yo'l transport hodisasi sodir bo'lgan va buning oqibatida ushbu davrda 322 nafar fuqarolarimiz halok bo'lgan. Bundan tashqari jinoyat kodeksiga avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash shuningdek imtihoni o'tkazish va haydovchilik guvohnomasini berish tartibini buzganlik transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum etilgan shaxsning transport vositasini boshqarganlik siqilgan tabiiy gazda

suyultirgan neft gazida yoki dizel va gazsimon yoqilg‘i aralashmasda ishlaydigan transport vositalaridan foydalanishni xavfsizlik qoidalarini buzganlik uchun ham jinoiy javobgarlik belgilandi. Shuningdek qonun bilan Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida transportda bezorilik ya’ni ayrim haydovchilar tomonidan boshqarish madaniyatiga rioya qilmay transport vositasini keskin boshqarish va boshqa harakatlarda ifodalangan agressiv boshqarish drift shaxmat shaklida harakatlanish yo‘llarida to‘siqlarni paydo qilish kabi qoidabuzarliklar uchun javobgarlik belgilandi. Takidlash lozimki o‘tgan 2024-yilda faqatgina foto va video qurilmalari yordamida aniqlangan huquqbuzarliklarning 22 foizi bitta transport haydovchisi tomonidan, 4 tagacha 18 foizi 5 tadan 10 tagacha, 9.5 foizi 11 tadan 20 tagacha, 1.3 foizi 31 tadan 40 tagacha e’tibor bering 01 foiz yoki bo‘lmasa 22 mingta haydovchi esa 100 tadan ko‘p yo‘l harakati qoidabuzarliklarni sodir etgan. Birgana misol 2024-yil 6-dekabr kuni Toshkent shahrining Yakkasaroy tumanida harakatlangan 1976-yilda tug‘ilgan 19 yillik haydovchilik stajiga ega bo‘lgan mercedes benz avtomatotransport vositasi haydovchisi yuqori tezlikda boshqarib ketayotib neksiya ikki rusimni transportni vositasini orqa qismiga borib urilib yo‘l transport hodisasini sodir etgan. Oqibatda bir nafar fuqaro halok bo‘lgan va uch nafar fuqaro bosh miya og‘ir jarohat tashxisi bilan shifoxonaga yotqizilgan. Mercedesbens avtomototransporti vositasi haydovchining oxirgi bir yil davomida sodir etgan qoidabuzarliklari o‘rganib chiqilganda ushbu fuqaro tomonidan bir yil davomida 26 qoidabuzarlik sodir etganligi aniqlangan. Shu tufaylni muhokama qilingan qonun bilan jarima ballari hisoblangan yo‘l harakati qoidalarini buzganlik uchun ma’muriy jazo qo‘llash kabi huquqbuzarliklar uchun javobgarlik belgilandi.⁶

⁶ Senatning Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi raysi Kutbidin Nukritdinovich Burxanovning Yo‘l harakati SJIF: 5.051

Xavfsizlikka qo'shimcha ravishda, transport vositalaridan foydalanishni tartibga soluvchi qoidalarda atrof-muhit masalalari tobora ko'proq e'tiborga olinmoqda. Iqlim o'zgarishi va havo sifati bilan bog'liq masalalar ortib borayotganligi sababli, transport vositalaridan chiqadigan chiqindilarni cheklash uchun qoidalar o'rnatilmoqda. Ushbu ekologik standartlarga rioya qilish ko'pincha toza texnologiyalar va yoqilg'idan foydalanishni, shuningdek, chiqindilarni muntazam ravishda sinovdan o'tkazishni talab qiladi. Bu o'zgarish nafaqat sog'lom muhitni targ'ib qiladi, balki ko'plab mamlakatlar qabul qilayotgan kengroq barqarorlik maqsadlariga ham mos keladi.

Qonunga rioya qilishda aholining xabardorligi ham muhim rol o'ynaydi. Fuqarolar haydovchi sifatidagi mas'uliyatini tushunishlari uchun transport vositalaridan foydalanish qoidalari haqida xabardor bo'lishlari kerak. Xavfsiz haydash usullari, atrof-muhitni muhofaza qilish va transport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish muhimligiga e'tibor qaratilayotgan ommaviy kampaniyalar ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Haydovchilar qoidalarga rioya qilmaslik oqibatlarini - bu jarima yoki baxtsiz hodisalar xavfini tushunsalar, ular qoidalarga ko'proq rioya qilishadi.

Qonunga rioya qilmaslikning ta'siri muhim xususiyatga ega bo'lib, nafaqat shaxsga, balki butun jamiyatga ta'sir qiladi. Xavfsizlik qoidalariga rioya qilmaslik natijasida sodir bo'lgan baxtsiz hodisalar katta iqtisodiy xarajatlarga, shu jumladan sog'liqni saqlash xarajatlariga va ishlab chiqarishning yo'qolishiga olib keladi.⁷ Bundan tashqari, ekologik huquqbuzarliklar aholi salomatligi va

xavfsizligi tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida so'zlagan nutqidan olingan.

⁷ Дремлюга, Роман Игоревич, Александра Витальевна Крипакова, and Андрей Александрович Яковенко. "Регулирование тестирования и использования беспилотного автотранспорта: опыт США." Журнал зарубежного законодательства и сравнительного правоведения 3 (2020): 68-85.

ekotizimlarga uzoq davom etadigan oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, transport tizimlarida muvofiqlik madaniyatini rivojlantirish ushbu xavflarni minimallashtirish va barqaror amaliyotlarni ilgari surish uchun juda muhimdir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, transport vositalaridan foydalanish qoidalariga rioya qilishni tartibga soluvchi qoidalar ko'p bir qancha xususiyatga ega bo'lib, xavfsiz, samarali va ekologik jihatdan kamchiqim transport tizimini ta'minlashda hal qiluvchi ro'l o'ynaydi. Bu kabi qoidalar asosan subyektiv jihatda qasddan yoki ehtiyotsizlikdan sodir etiladi. Barcha subyektlar ushbu qoidalarni tushunishlari va ularga rioya qilish bo'yicha sa'y-harakatlarda faol ishtirok etishlari shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Такмакова, Ю. В. (2020). Некоторые проблемы использования средств видеофиксации нарушений правил дорожного движения. Вестник Восточно-Сибирского института МВД России, (2 (93)), 218-226.
2. Ковалева, В. А. "Административные правонарушения на морском и внутреннем водном транспорте: понятие и особенности квалификации." Вестник магистратуры 7-1 (58) (2016): 143-147.
3. Дремлюга, Роман Игоревич, Александра Витальевна Крипакова, and Андрей Александрович Яковенко. "Регулирование тестирования и использования беспилотного автотранспорта: опыт США." Журнал зарубежного законодательства и сравнительного правоведения 3 (2020): 68-85.
4. <https://parliament.gov.uz/news/avtomobil-transporti-va-avtomobil-yollari-bilan-bogliq-qonunchilikka-kiritilgan-ozgartirishlar#>.

-
5. <https://senat.uz/>.